



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2025



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar





2025

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2-JILD 3-SON



YANGI RENESSANS

**RESPUBLIKA ILMIY JURNALI
TO'PLAMI**

**2 - JILD, 3 - SON
2025**



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA HUQUQIY TAFAKKURNING YANGILANISHI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI ASOSIDA FALSAFIY TAHLIL

IBRAGIMOVA JAHONA OTABEK QIZI

ibragimovajahona@gmail.com

Andijon davlat pedagogika instituti

Huquq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Uchinchi Renessans g'oyasining mazmuni, uning huquqiy tafakkur bilan o'zaro aloqasi Sharq va G'arb tajribasi nuqtai nazaridan falsafiy tahlili keltiridi. Tadqiqotda inson tafakkuri va huquqiy ongning uyg'onish jarayonlari, ularning zamonaviy O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni ochib berilgan

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans, huquqiy tafakkur, huquq falsafasi, Sharq, G'arb, inson qadri, adolat, tafakkur yangilanishi.

Kirish. „Renessans“ (fransuzcha renaissance - qayta tug'ilish, uyg'onish) deganda nafaqat madaniy yoki ilmiy uyg'onish davri, balki inson tafakkuri va qadriyatlarining yangilanish jarayonidir. Har bir Renessans bosqichi inson ongida yangi dunyoqarash, yangi ma'naviy va huquqiy qadriyatlarning shakllanishiga sabab bo'lgan. Bu davr tarixiy jihatdan uch bosqichda ko'riladi:

Sharq renessansi (IX-XV asrlar) . Bu davr- O'rta Osiyo, Yaqin Sharq ,Xitoy va Hindiston madaniyatining eng yuksak cho'qqisidir. Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug'bek kabi allomalar ilm-fan, falsafa, axloq, adolat va davlat boshqaruvi sohalarida buyuk asarlar yaratdilar.

Ularning fikricha:

Inson - olam markazi va ongli mavjudot ;

Adolat - eng ijtimoiy qadriyat ;

Bilim va ma'rifat - insonni komillikka yetkazuvchi kuch.

Shu bois Sharq renessansi „ma'rifat, axloq, va adolat uyg'onishi sifatida tasvirlanadi.

G'arb renessansi (XIV-XVI). Bu davrda Yevropada (Italiya, Fransiya, Angliya va Germaniya) insonparvarlik (gumanizm) g'oyalari shakllandi. Leonardo da Vinchi, Dante, Petrarka, Erazm Rotterdamskiy, Tomas Mor kabi mutafakkirlar inson taffakkurining cheksiz imkoniyatini targ'ib qildilar.

Asosiy g'oyalari :

- Inson erkinligi va ijodkorligi;
- Tabiiy huquqlar va ijtimoiy shartnoma nazariyalari;
- Aql, tajriba va fan orqali dunyoni tushinish;

G'arb renessansi huquqiy tafakkurda tabiiy huquq, shaxs erkinligi, davlat va fuqarolik jamiyati g'oyalarining shakllanishiga sabab bo'ldi.

Uchinchi Renessans (XXI asr-hozirgi O'zbekiston)





O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan „Uchinchi Renessans konsepsiyasi“ bu sharqning boy ma'naviy merosi va zamonaviy G'arb ilm-fani uyg'unlashgan yangi uyg'unish davridir.

Uning asosiy g'oyalari:

Inson qadri uchun tamoyili;

Yoshlar ta'limi va huquqiy madaniyatni yuksaltirish;

Adolat va huquq ustuvorligi;

Innovatsion tafakkur va ilm-fan taraqqiyoti.

Bu jarayon falsafiy jihatdan inson ongining yangilanishi, huquqiy tafakkurning uyg'unishi, milliy qadriyatlar va global g'oyalar integratsiyasini anglatadi. Istiqloлга erishganimizdan keyin dastlabki yillarda „O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat“ shiori olg'a surildi. U amalda milliy g'oya vazifasini o'tadi va xalqni birlashtirishda, safarbar etishda katta rol o'ynadi. Mazkur jozibali shiorda urg'u jamiyatga emas, davlatga berilgandi. Keyinchalik milliy g'oya shaklan takomillashtirilganda „Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot“ iborasi olg'a surildi. Unda urg'u siyosiy tashkilotga (davlatga) emas, balki har kishi uchun, siyosiy, mafkuraviy qarashlaridan qat'i nazar, birdek aziz Vatanga hamda shaxs va jamiyat hech qachon befarq bo'lmaydigan erkinlikka va farovonlikka qo'yildi. Milliy g'oyaning bunday tushunchaviy ifodasi ancha mukammallik kasb etdi. Ammo uning mazmunini, uni amalga oshirish vazifalarini ochib berishga yetarlicha mas'uliyat bilan yondashilmadi. Ayniqsa, u islohotlarning yo'nalishlari, sohalari, turli bosqichlari, amaldagi va ehtimoldagi muammolari bilan bog'lanmadi. Natijada u mafkuraviy chaqiriq, quruq shior darajasida qolib ketdi. Aniq muammolar va vazifalardan yiroqligi uchun odamlarga ta'siri asta-sekin susaya boshladi. Katta qiziqish va xayrixohlik bilan kutib olingan „Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot“ bugun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotimizga real ta'sir ko'rsatayotirmi, degan savolga aniq javob berish ancha mushkul. Milliy g'oyani jonlantirish uchun uni Uchinchi Renessans g'oyasi bilan boyitish zarur. Faqat Uchinchi Renessansni amalga oshirib, biz ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayotni barpo eta olamiz. Yoki, yana qulayrog'i, Uchinchi Renessansga erishishni milliy g'oyaning yangi ifodasi, deb e'lon qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida, mamlakatimizda ilm-ma'rifatga berilayotgan alohida e'tiborning zahirida chuqur ma'no bor. Ya'ni Uchinchi Renessans – Yangi O'zbekistonning taraqqiyot, tinchlik va farovonlik kafolati bo'lishi kerak. Ilm-ma'rifat – bu yangi uyg'unish davrining poydevori, uning asosida esa shu yurt fuqarolarining milliy tafakkuri, milliy g'oyasi, ertangi kunga, taraqqiyotga bo'lgan ishonchi bo'lib, jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlab beruvchi asosiy ustuvor omillardan biridir. Ilm-fan rivojlanar ekan, nafaqat iqtisodiyot, balki





ijtimoiy-madaniy sohaning ham taraqqiyoti kafolatlanadi, mazkur kafolat esa o'zida yangi renessans davrini ifoda etishiga shubha yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M.Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.- Toshkent,2022.
2. Jo'rayev T.,To'xliyev A. Falsafa va huquq asoslari.-Toshkent:Fan,2019.
3. Qodirov N.,Yusupov B. Huquq falsafasi.-Toshkent:TDYuU
4. nashriyoti,2020.
5. Nazarov Q.Renessans davri tafakkuri va zamonaviy O'zbekiston ma'naviy islojotlari.-Toshkent:Ma'naviyat,2022.
6. Abdullayeva N. „Uchinchi Renessans: falsafiy va ma'naviy jihatlar“- Falsafa va huquq, 2023.

